



VOL. 1 NO. 5 (2025)

JOURNAL OF
INTERNATIONAL
SCIENCE
NETWORKS

<https://bestjournalup.com/index.php/jisn/issue/archive>

JOURNAL OF
INTERNATIONAL


SCIENCE
NETWORKS

J I S N

IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA UZOQ MUDDATLI AKTIVLARNI BAHOLASH VA HISOBGA OLIHNING TAKOMILLASHTIRISH

G'ulomova Diyora Olimjon qizi

International School of finance technology And science instituti "Buxgalteriya hisobi" kafedrası o'qituvchisi
e-mail: diyora.gulomova02@gmail.com



ANNOTATION:

Maqolada iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida uzoq muddatli aktivlarni tan olish, baholash va hisobga olishning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Xalqaro standartlarga asoslangan baholash uslublari va zamonaviy hisob tizimlari muhokama etilgan

KEYWORDS:

uzoq muddatli aktivlar, tan olish, baholash, hisobga olish, iqtisodiy modernizatsiya, moliyaviy standartlar

Accepted Date:

May 05, 2025,

Published Date:

May 10, 2025

Journal Website:

<https://bestjournalup.com/index.php/jisn/issue/view/jisn5>

License



This work is licensed under
a [Creative Commons Attribution-
NonCommercial-NoDerivatives 4.0
International License](https://creativecommons.org/licenses/by-nc-nd/4.0/).

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida korxonalar moliyaviy axborot tizimining ishonchliligi va shaffofligi yuqori ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, iqtisodiyotni modernizatsiyalash davrida uzoq muddatli aktivlarni tan olish, baholash va hisobga olish masalalari yangicha yondashuvni talab etadi. Uzoq muddatli aktivlar korxona resurslarining eng muhim qismini tashkil etib, ishlab chiqarish jarayonining asosini tashkil etadi.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi nizolar bo'yicha qabul qilgan ajrimlar mazmunida balansning asosiy vazifasi mulkni baholashga qaratilgan. Hisobotlar, eng avvalo, korxonalarning o'z majburiyatlari bo'yicha to'lov qobiliyatiga ega ekanligi haqida ma'lumot berishi lozim, deb hisoblangan. Statik balansning bosh maqsadi kreditorlar manfaatlarini himoya qilish va ro'y berishi mumkin bo'lgan bankrotlikning oldini olish deb ta'riflangan. Shuning uchun hisobot tuzishda bozor narxlarini asos qilib olish va korxona faoliyatining pirovard moliyaviy natijasini faqat u tugatilgandan keyin hisoblab chiqish mumkin, deb e'tirof etilgan.

ASOSIY QISM

Uzoq muddatli aktivlarni tan olish, baholash va hisobga olishda ularni buxgalteriya balansida aks ettirishning statik va dinamik usullari muhim ahamiyatga kasb etadi. Aktivlar qiymatini ushbu usullar talablaridan kelib chiqib balansda aks ettirish natijasida mos ravishda statik balans va dinamik balans tuziladi.

Statik usulga ko'ra buxgalteriya balansini tuzishda uzoq muddatli aktivlarning aynan shu vaqtdagi qiymati asos qilib olinadi. Statik hisobning asosiy maqsadi korxonaning barcha aktivlarini sotishdan olgan foydani o'sha paytda mavjud bo'lgan kreditorlik qarzlarni to'lash uchun yetarliligi to'g'risida axborot berishdan iborat. Statik balansning ustuvor maqsadi bo'lib, xo'jalik

yurituvchi sub'ektni mablag' bilan ta'minlovchi shaxslar o'rtasida taqsimlash uchun yaroqli bo'lgan aktivlarning qiymatini namoyish qilish hisoblanadi.

Real to'lov vositalari faqatgina korxona aktivlarini sotish orqali aniqlanishi mumkin bo'lgani uchun, kreditorlar:

- hisobot tuzishda bozor narxlarini asos qilib olish kerakligini;

- korxona faoliyatining oxirgi moliyaviy natijasini faqat u tugatilgandan keyin hisoblab chiqish lozim deb ta'kidlashganlar.

Uzluksiz faoliyat tamoyiliga amal qilinishini nazarda tutgan holda huquqshunoslar korxonani sohta tugatishni, ya'ni inventarizatsiya yakunlari bo'yicha har bir uzoq muddatli aktivlarni ularning sotilishi mumkin bo'lgan narxida baholashni tavsiya etishgan. SHunday qilib, statik hisob doirasida joriy bozor narxlarini balans tuzishda asosga qilib olish tartibi hamda hisobotga sub'ektivlik elementi kiritilgan.

Mulkni baholashning ob'ektivligini aniqlash mezonini va ko'rsatgichi bo'lib ayirboshlash qiymati hisoblangan. Odatda, ayirboshlash qiymati chakana yoki birja bahosi sifatida namoyon bo'lgan. Ayirboshlash qiymati bozorning ob'ektivligiga aynan shu tartibga ko'ra korxona hisobchilari har bir hisobot sanasiga ob'ektning, uning oldingi davrda qanday baholanganligidan qat'iy nazar, joriy qiymatini aniqlashi lozim edi. Amortizatsiya tushunchasi balansda asosiy vositalar qiymatini pasaytirish, deb qaralgan. Bundan tashqari, baholash balansda aks ettirilishi lozim bo'lgan aktivlar doirasini qanday aniqlash masalasiga bog'liq bo'lmagan holda ko'rib chiqilgan.

Aktivlarni balansda aks ettirishga bunday tartibda yondashuv albatta joriy aktivlarga nisbatan to'g'ri kelishi mumkin, lekin uzoq muddatli aktivlarga nisbatan bunday tartibni joriy etish xatolik bo'lar edi. CHunki uzoq muddatli aktivlar korxonalar faoliyatida bir necha hisobot davri mobayinida ishtirok

etishini va daromad keltirishini nazarda tutadigan bo'lsak ularni qayta baholab dastlabki qiymatini o'zgartirib yuborish mumkin bo'ladi va buni natijasida ob'ektivlik yo'qoladi.

Bozor munosabatlari sharoitida statik balansni tuzish tamoyillari quyidagi vazifalarni yechish imkonini beradi:

- korxona mulki qiymatini batafsil aks ettirish;
- mulk egalari va kreditorlar huquqlarini himoya qilish;
- risk miqdorini aniqlash;
- korxona bankrotga uchragan vaziyatda uning mulkini kreditorlar va mulkdorlar o'rtasida taqsimlash;
- soliqqa tortiladigan bazani shakllantirish maqsadida kichik tadbirkorlar faoliyatining moliyaviy natijasini hisob tadbirlarini o'tkazmasdan aniqlash.

Statik balans tamoyillari soliq qonunchiligi me'yorlarini qo'pol ravishda buzishga yo'l qo'yadigan soliq to'lovchilar ustidan soliq nazoratini o'rnatish uchun foydalanilishi mumkin.

XX asrda ko'pchilik hollarda amalda bozor bahosi hisoblanadigan "adolatli qiymat" tushunchasi paydo bo'ldi. Bu esa buxgalteriya hisobida dastlabki narxlar bo'yicha baholash tamoyilining hukmronligini shubha ostiga qo'ydi. Ushbu holat korxonalarda statik hisobni joriy etish va statik balansni tuzish zaruriyatini tug'diradi. Statik balans audit maqsadlari uchun juda qulaydir. Biroq amaliyotda qo'shimcha statik hisobni yuritish qo'shimcha ishlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Hozirgi vaqtda buxgalterlar baholashning mantiqan muvofiq bo'lmagan har xil turlarini, hisobning maqsadlari, vazifalari va kontseptsiyalarini o'zida mujassamlashtirgan bitta an'anaviy balans tuzishni ma'qul ko'rishadi.

Dinamik hisob – bu muayyan paytga korxonaga kiritilgan kapitalning aylanma harakatini balansda ifodalashga imkon beruvchi hisob yuritish uslubidir. Dinamik

balansda hisobning barcha ob'ektlari ularning tannarxi bo'yicha aks ettiriladi. Dinamik balansning ustuvor maqsadi bo'lib kapital qarama - qarshiliklarini aks ettirish va moliyaviy natijalarni daromadlarning xarajatlardan ortib ketishi sifatida hisoblab topishdan iborat. Bunda solishtirma daromadlar va xarajatlarni maqsadga muvofiq va asoslangan holda bir xillashtirish va foydani hisoblashga urg'u beriladi. Bunday hisoblash asosida aktivlarga yo'naltirilgan qo'yilmalarning tannarxiga, ya'ni dastlabki narxlariga e'tiborni qaratish yotadi. Real moliyaviy ahvolni aks ettirish ikkinchi darajali maqsad bo'lganligi uchun, aktivlarni qayta baholash va bozor narxlarini qo'llash kerak emas, degan tushuncha bu yerda ustun turadi.

Dinamik balansda baholashning bir xilligi tamoyiliga rioya qilinishi lozim, chunki aktivlarning har qanday qayta baholanishi moliyaviy natijalarni buzib ko'rsatilishiga sabab bo'lib qolishi mumkin. Baholashni tanlashda zahiralarini xarid qilish narxi yoki tannarxning, bozor narxi yoki sotish narxining eng past bo'lgan narxlarda baholashni talab qiluvchi ehtiyotkorlik tamoyiliga rioya qilinishi lozim. Eng past narxlar tamoyili balansni ideal dinamik talqin qilishga mos kelmaydi, lekin shunga qaramasdan unga ustunlik beriladi. Dinamik talqin tarafdorlari aktivlarni balansda ularning tannarxi (xarid qilish qiymati, yoki ishlab chiqarish tannarxi, yoki ishlatish qiymati) bo'yicha baholashni afzal ko'rishadi, bundan tashqari balansning realligini tasdiqlash uslubi bo'lib faqat daromadlar va xarajatlarni hujjatli tekshirish mumkin deb uqtiradilar, qayta sanash uslublari esa inkor etiladi.

Dinamik balansning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'lib xarajatlar va sarflar o'rtasidagi farqni aniqlash hisoblanadi. Xarajatlar deganda haqi to'langan yoki to'lanishi lozim bo'lgan aktivlar tushuniladi. Sarflar deganda esa o'z vazifasini bajara olmay qolgan, hisobdan chiqarilgan aktivlar tushuniladi. SHuning uchun buxgalteriya

hisobining vazifasi xarajatlarning sarflarga aylanishini to'g'ri aks ettirishdan iborat bo'ladi.

Dinamik balansda debitorlik qarzdorligi sifatidagi daromad bilan daromadlarning kelib tushishi o'rtasiga qat'iy chegara qo'yiladi. Daromadlar o'z ichiga nafaqat hisobot davrining tushumlarini, balki bo'lajak sotishlarning ehtimoliy qiymatini ham olishi kerak. Debitorlik qarzdorligini hisobga olish buxgalteriya registrarida to'lovni kechiktirilganligi uchun foizlarni aks ettirmasdan yuritilishi kerak. Bu balansda faqat real qo'yilgan kapitalni aks ettirish zarurati bilan tushuntiriladi. Foizlar "Foyda va zararlar" scheti bo'yicha faqat ularni to'lash paytida aks ettiriladi. Kreditorlik qarz aktivlarning, asosan pul mablag'larining kelgusidagi chiqib ketishi sifatida talqin etiladi.

Statik hisob kontseptsiyasiga binoan barcha ijaraga olinayotgan vositalar balansga kiritilmasligi va balansdan tashqari schetlarda aks ettirilishi kerak. Bu operativ yoki moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan aktivlar bo'lishidan qat'i nazar.

Dinamik hisob kontseptsiyasi egalik huquqi degan tushunchani e'tiborga olmaydi. Ushbu kontseptsiya nuqtai nazaridan korxona foydalanadigan har qanday aktiv buxgalteriya balansida ko'rsatilishi kerak.

Bizning fikrimizcha, uzoq muddatli aktivlarning hisobga olishda mulkiy alohidalik tamoyili bilan yuridik shakldan iqtisodiy mazmunning ustuvorligi tamoyili o'rtasida uzviy bog'liqlik bo'lishi zarur. Bundan tashqari, ushbu ikki tamoyilning amal qilishi daromad va xarajatlarning mutanosiblik tamoyiliga asoslangan bo'lishi lozim. Mulkdan foydalanuvchi aktivlardan foydalanish natijasida iqtisodiy naf olar ekan, u holda mulkning yuridik huquqi aktivlarning buxgalteriya balansida aks ettirishga asos bo'lmasligi kerak.

1. Tan olish (e'tirof etish- Uzoq muddatli aktivlar moliyaviy hisobotga faqat aniq mezonlar asosida kiritiladi:

- Aktivdan kelgusida iqtisodiy foyda olinishi kerak;

- Uning qiymati ishonchli aniqlanishi lozim.

2. Baholash- Modernizatsiya sharoitida baholash quyidagilarni talab qiladi:

- Aktivlarning bozor qiymatiga yaqinlashtirilgan **qayta baholash** amaliyoti;

- **Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS)** asosida baholashning joriy etilishi;

- Aktivlar qiymatining pasayishini (impairment) aniqlash va qayd qilish.

3. Hisobga olish Zamonaviy hisob tizimi quyidagilarga tayanadi:

- Aktivlar eskirishini to'g'ri hisoblash (amortizatsiya siyosati);

- Raqamli buxgalteriya tizimlarida avtomatlashtirilgan hisob yuritish;

- Aktivlar harakati bo'yicha to'liq audit izi ta'minlanadi.

Uzoq muddatli aktivlar hisobi negizida yotuvchi keyingi muhim tamoyil – bu faoliyatning uzluksizligidir. Ushbu tamoyil korxonani bir maromda faoliyat yuritishini va yaqin kelajakda o'z faoliyatini davom ettirishini bildiradi. Uzluksiz tamoyiliga asosan korxonada o'z faoliyatini tugatish yoki qisqartirish niyati bo'lmaydi va shuning uchun uning majburiyatlar o'rnatilgan tartibda qondiriladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona uchun uzoq muddatli aktivlarni baholash balans qiymati bo'yicha amalga oshiriladi, bu yerda balans qiymati deganda dastlabki qiymati, shuningdek, joriy tiklanish, yoki o'tkazilgan qayta baholashlar yordamida hisoblash, yoki ekspert yo'li bilan aniqlangan joriy bozor baholari tushunilishi mumkin. CHeklangan xizmat muddatiga ega bo'lgan uzoq muddatli aktivlar uchun mazkur muddat davomida dastlabki qiymat tizimli ravishda kamayadi, shunga asosan, korxonaning buxgalteriya balansida uzoq muddatli aktivlar qoldiq qiymatda qayd etiladi. Agar korxona o'z

faoliyatini tugatsa, korxona faoliyatining uzluksizlik tamoyili buziladi. Bunday sharoit korxona mulkini baholash usulini o'zgartirish lozim.

O'z faoliyatini tugatayotgan korxona uchun uzoq muddatli aktivlarni baholashda sotish qiymati usuli qo'llanilishi lozim. Bunda quyidagi holatlar vujudga kelishi mumkin:

➤ yuridik shaxsning uzoq muddatli aktivlarini sotish qiymati kreditorlik qarzlarni qoplash uchun yetarli bo'ladi;

➤ yuridik shaxsning uzoq muddatli aktivlarini sotish qiymati kreditorlar talabini qondira olmaydi va ular o'zlariga tegishi mumkin bo'lgan ulushning bir qismini oladi;

➤ yuridik shaxsning uzoq muddatli aktivlarini sotish qiymati qarzlardan ancha ko'p va u qarzlarni to'lagicha qoplash uchun yetarli.

SHunday qilib, korxona faoliyatining uzluksizlik tamoyilini uzoq muddatli aktivlar buxgalteriya hisobiga tatbiq etib, quyidagicha ifodalash mumkin: faoliyat olib borayotgan korxonaning uzoq muddatli aktivlari balans qiymati (dastlabki, joriy tiklanuvchi, joriy bozor baholarida, qoldiq baholar)da baholanadi. Korxona faoliyati to'xtatilib oraliq tugatish balansi tuzilayotganda, uzoq muddatli aktivlar sotish qiymat bo'yicha baholanadi.

Moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish kontseptual asosiga ko'ra, hisoblash tamoyili korxona xo'jalik faoliyatining ma'lum bir davrini tavsiflaydi, ya'ni sodir etilgan xo'jalik operatsiyalari aynan o'sha davrga taalluqli deb tan olinadi, bunda pul mablag'larini to'langan yoki olingan payti inobatga olinmaydi. SHunday qilib, hisoblash tamoyili bu buxgalteriya hisobida bo'lib o'tgan xo'jalik operatsiyalarni mazkur hisobot davrida tan olinishi lozim ekanligini e'tirof etish demakdir. SHuning uchun korxona foaliyati tugatilayotganda aktivlarni sotish bahosi ularni sotishdan olinadigan daromadlarni hisoblash imkonini beradi.

Bizning fikrimizcha, hisoblash tamoyilini 3 ta mustaqil tamoyilga ajratish maqsadga muvofiq. Bular:

- xarajatlarni aniqlash tamoyili;
- daromadlarning xarajatlarga mos kelish tamoyili;
- qayd qilish tamoyili.

Xarajatlarni aniqlash tamoyilining ma'nosi shundan iboratki, xarid qilingan aktivlarga to'langan pul va uning ekvivalentlari o'z holicha xarajat hisoblanmaydi, balki o'sha mablag'larni to'lash natijasida majburiyatlarining vujudga kelishi xarajat bo'lib hisoblanadi.

Daromadlarni qayd qilish tamoyili ularning haqiqatda kelib tushgan vaqtidan qat'i nazar, ular vujudga kelgan hisobot davrida tan olinishini bildiradi.

Hozirgi kunda buxgalteriya hisobi qoidalarida daromadni tan olishning asosiy mezonini qilib mulkka egalik huquqining hamda mulkka nisbatan risklarning sotuvchidan oluvchiga o'tishi payti qabul qilingan. Uzoq muddatli aktivlar bo'yicha operatsiyalarda alohida ob'ektlarni vaqtin-chalik foydalanishga berishdan, sotilishi va boshqa chiqimlaridan ham daromadlar olish mumkin. Bunday daromadlar ham qayd etish tamoyili asosida tan olinishi va hisobga olinishi lozim.

Daromadlarning xarajatlarga mos kelish tamoyili shuni ko'zda tutadiki, daromad olish uchun qilingan xarajatlar buxgalteriya hisobida daromadlar ko'rsatilgan davrda keltiriladi. Bu tamoyilning muallifi nemis olimi E.SHmalenbax hisoblanadi. Uning fikricha, uzoq muddatli aktivlar - bu kelgusida daromad olish uchun bugun qilingan xarajatdir.

Mos kelish tamoyilini amaliyotda qo'llash anchayin qiyin hisoblanadi. Mazkur tamoyilning qo'llanilishi hisobot davrida ishlab topilgan daromad, albatta, shu davrda amalga oshirilgan xarajatlarga bog'liq bo'lishini taqozo etadi. Ushbu tamoyilni amalga oshirish uchun xorij amaliyotida buxgalteriya hisobining maxsus usullarini qo'llash ko'zda tutilgan. Bu

usullar konstatatsiya yoki transformatsiya deb ham ataladi. Xarajatlar va daromadlarni bir hisobot davrida hisobga olish konstatatsiya usuli deb e'tirof etiladi. Xarajatlar va daromadlar ikki va undan ortiq hisobot davrlariga tegishli bo'lsa, transformatsiya vujudga keladi.

Uzoq muddatli aktivlar buxgalteriya hisobiga xarajatlar transformatsiyasi jarayonini qo'llash ma'nosini quyidagicha ifodalash mumkin: uzoq muddatli aktivlarni sotib olish bo'yicha ularning dastlabki qiymati kelgusida olinadigan iqtisodiy naflarga mos ravishda amortizatsiya ajratmalari ko'rinishida xarajatlar hisobiga chiqariladigan kapitallashgan xarajatlarga transformatsiya qilinadi.

Uzoq muddatli aktivlarning tiklanishi bo'yicha amalga oshirilgan xarajatlar joriy xarajatlarga (agarda qilingan xarajatlar hisobot davrida olinadigan iqtisodiy nafga mos kelsa), kechiktirilgan xarajatlarga (agarda qilingan xarajatlar ikki va undan ortiq hisobot davrida iqtisodiy naf olishga imkon bersa), kapitallashgan xarajatlarga (agarda qilingan xarajatlar uzoq muddatli aktivlarning boshlang'ich qiymatini ko'paytirib, kelgusi davrda iqtisodiy naf olishga imkon bersa) transformatsiyalanadi.

Daromadni olish huquqi ushbu hisobot davriga mos kelsa, joriy daromad hisoblanadi, aksincha kelgusida daromad sifatida tan olinib, ularni olish huquqi ham kelgusida vujudga kelsa, u holda daromad transformatsiyalanadi.

Buxgalteriya hisobining asosiy tamoyillaridan biri bu ehtiyotkorlik tamoyilidir. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarida mazkur tamoyilning quyidagicha ta'rifi berilgan: "Ehtiyotkorlik noaniqlik sharoitida zarur bo'lgan hisob-kitoblarni ishlab chiqish uchun tegishli bo'lgan mulohazani shakllantirishda muhim, shunday ehtiyotkorlik choralarini ko'rish natijasida aktivlar va daromadlar ortib ketmagan, majburiyat yoki xarajatlar pasayib ketmagan bo'lishi kerak.

Uzoq muddatli aktivlarning bir ob'ektiga nisbatan ikki xil ehtiyotkorlik kontseptsiyasi mavjud:

- dinamik buxgalteriya hisobi nuqtai nazaridan ehtiyotkorlik tamoyili, bunda uzoq muddatli aktivlarning ularni faqat sotish yoki boshqa sabablar bilan chiqib ketishi holatidagi real qiymatini aniqlashni ko'zda tutadi;

- statik buxgalteriya hisobi nuqtai nazaridan ehtiyotkorlik kontseptsiyasi, bu hali sotilmagan uzoq muddatli aktivlarning potentsial zararini e'tiborga olishni nazarda tutadi, ya'ni uzoq muddatli aktivlarning sof sotish qiymatini pasayishi e'tiborga olinadi.

Statik hisob kontseptsiyasi amaldagi buxgalteriya hisobotlarida to'liq qo'llanilmaydi.

Buxgalteriya hisobi qoidalariga ko'ra egalik huquqiga binoan ob'ektlar foyda keltirishi yoki keltirmasligidan qat'iy nazar uzoq muddatli aktiv deb tan olinadi. Xalqaro standartlar qoidasiga ko'ra, foyda keltirmaydigan uzoq muddatli aktivlarga qilinadigan sarf xarajatlar zararga olib boriladi.

Uzoq muddatli aktivlarga nisbatan konservatizm tamoyiliga amal qilish mumkin emas, chunki har bir zarar keltiruvchi ob'ekt hisobdan chiqarilishi kerak, har qanday aktiv bahosining o'zgarishini o'sha ob'ektni sotish paytigacha amalga oshirish mumkin emas. Bundan tashqari konservatizm tamoyili boshqa tamoyillar bilan qarama - qarshi jihatlariga ega, chunonchi, korxona faoliyatining uzluksizligi tamoyili bilan ham.

XULOSA

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida uzoq muddatli aktivlar bilan ishlashning an'anaviy uslublari o'zgarib bormoqda. Ularni tan olish, baholash va hisobga olishda zamonaviy moliyaviy yondashuvlar, xalqaro standartlar va raqamli texnologiyalarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish kontseptual asosiga ko'ra, hisoblash tamoyili korxona xo'jalik faoliyatining ma'lum

bir davrini tavsiflaydi, ya'ni sodir etilgan xo'jalik operatsiyalari aynan o'sha davrga taalluqli deb tan olinadi, bunda pul mablag'larini to'langan yoki olingan payti inobatga olinmaydi. SHunday qilib, hisoblash tamoyili bu buxgalteriya hisobida bo'lib o'tgan xo'jalik operatsiyalarni mazkur hisobot davrida tan olinishi lozim ekanligini e'tirof etish demakdir. Shuning uchun korxona foaliyati tugatilayotganda aktivlarni sotish bahosi ularni sotishdan olinadigan daromadlarni hisoblash imkonini beradi.

Uzoq muddatli aktivlarni hisobga olishda davriylik, moliyalashtirish hamda joriy, kelgusi davr va kapital xarajatlarni alohida hisobga olish usullari metodologik usul bo'lib hisoblanadi.

Buxgalteriya hisobi davriyligi usuli aktivlarning sotib olish bo'yicha bir vaqtdagi xarajatlarini alohida hisobot davrlari bo'yicha taqsimlashni ko'zda tutadi. Shunday qilib, uzoq muddatli aktivlarni sotib olish bir vaqtda katta xarajatlar qilinishini taqozo etadi, lekin bu xarajatlar qaysi davrda vujudga kelgan bo'lsa, o'sha hisobot davriga kiritilmaydi. Shuning uchun aktivlardan foydalanish muddatining dastlabki hisob-kitobi amalga oshiriladi va ulardan samarali foydalanish davri aniqlanadi. Shuningdek, uzoq muddatli aktivlarning har bir hisobot davriga to'g'ri keluvchi qismi ajratiladi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 24 apreldagi «Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4720-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. 3.2-band. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi «Mahsulot (ish, xizmat) larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi №54-sonli qarori.

4. Davlat ulushi bo'lgan aktsiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyati samaradorligin baholash mezonlari to'g'risidagi Nizom. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 28 iyuldagi 207-son qarori bilan tasdiqlangan.

5. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida banklarda buxgalteriya hisobi. O'quv qo'llanma. Hammuallif – T.: "MOLIYA", 2010 - 272 b.

6. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. <http://finansist.uz/uz/moliyaviy-hisobotning-xalqaro-standartlari-ozbekistonda-qollanilishi/> 2018 y. 555 Раздаточный материал по курсу повышения квалификации: «Международные стандарты финансовой отчетности (МСФО)». O'zbekiston auditorlar palatasi. Tashkent-2015. 335-bet.